

O‘ZBEK DRAMATURGIYASI ASOSCHISI THE FOUNDER OF UZBEK DRAMATURGY

Xoliqov Mirjalol Raxmatulla o‘g‘li

K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Kino dekoratsiya loyihalash texnologiyasi +998900099379

Annotation:

This article provides information about Hamza Hakimzoda Niyazi's great contribution to Uzbek dramaturgy.

Keywords: dramaturgy, revolution, October, jadid.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyozining o‘zbek dramaturgiyasiga qo‘shgan ulkan hizmatlari haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, revolyutsiya, oktyabr, jadid.

Hamzaning dramaturgiya sohasidagi ijodi 1914 yil oxiridan boshlanadi. U revolyutsiyadan ilgari “Zaharli hayot”, “Firuzaxonim”, “Ilm hidoyati”, “Normuhammad domlaning kufri xatolari”, “Avtonomiya yoki muxtoriyat” kabi sahna asarlari yaratdi. Hamza bu pyessalarida xalqni ma‘rifatga chaqirish, xalqni og‘ir hayotini ko‘rsatish, mustamlaka siyosati, din va ulamolarni fosh qilish, o‘zbek xotin-qizlarining feodal zulm iskanjasidagi jafolarini ko‘rsatgan edi. Bu pyessalar g‘oya va muammolarining qo‘yilishi jihatidan jadid dramaturgiyasidan butunlay farq qilar edi.

Hamzaning Oktabrdan burungi dramaturgiyasi reaksiya bilan kurashda, og‘ir sharoitlar va turli ta‘qiblar ostida dunyoga kelgan edi. Shuning uchun uning bu asarlarida sinfiy kurash temasi bo‘rtirilib ko‘rsatilmagan edi. Natijada Hamzaning revolyutsiyadan ilgari sahna qahramonlari – G‘ofur, Tal‘at va Saidxonlar sinfiy kurash pozitsiyasida turgan qahramonlar bo‘lmay, balki eski zamonga, adolatsizlik, tengsizlik va huquqsizlikka qarshi bosh ko‘taruvchi va shu kurashda halok bo‘luvchi Maryam va Firuza kabi yangi qahramonlar edi.

Agar rus teatri Oktabrga o‘zining ajoyib klassik dramaturgiyasining buyuk merosi bilan kirgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bunday emas edi. Oktabr revolyutsiyasidan so‘ng o‘zbek sovet teatrini tashkil qilishigina emas, o‘zbek dramaturgiyasini ham

butunlay yangidan yaratish kerak edi. Chunki xalqdan uzoq bo'lgan jadid dramaturgiyasini esa revolyutsiya supurib tashlagan edi. Hamzaning revolyutsiyadan ilgari demokratik tendensiyadagi dramaturgiyasi revolyutsion kurash yillaridagi yangi talabga javob berolmas edi. Shuning uchun ham, revolyutsion va sotsialistik g'oyalarni o'z ichiga olgan butunlay yangi o'zbek sovet dramaturgiyasini yaratish vazifasi kelib chiqqan edi. Mana shu ulug' vazifani bajarishni Hamza o'z zimmasiga oldi.

Hamzaning dramaturgiyasi yaratilishida M.Gorkiyning teatr va dramaturgiya sohasidagi faoliyati g'oyat katta rol o'ynaydi. M.Gorkiy grajdanlar urushi yillarida yosh sovet yozuvchilari va dramaturglarini tarbiyalashda katta ishlar olib borgan edi. M.Gorkiyning adabiyot va teatr sohasida o'sha yillarda qilgan ishlari O'zbekistonga ham yetib kelgan, revolyutsiyaning oldingi safida turgan Hamzaga o'xshagan yozuvchilar unga ergashib borar edilar.

“Shuni tushunish kerakki, - deb yozdi A.M.Gorkiy, - bugun chang, ifloslik va tartibsizliklarni yemirish bilan kishilik o'tmishning temir sirtmog'idan ozod qilish yo'lida buyuk ishlar boshlanib ketdi. Kechagi yovuzliklar kechagi odam bilan birga o'zining oxirgi umrini kuzatmoqda ekanini sezmoq kerak”¹

Ayniqsa, Gorkiyning yosh va keksa yozuvchilarga qaratib “ eski tartiblarga qarshi kurashda va yangi hayot tuzumini tuzishda biz bilan birga yuringiz – ozodlik va go'zal hayot sari biz bilan bo'lin ”² – degan otashin chaqiriqlari Hamzaga ham zo'r ilhom bag'ishlagan edi.

Hamza boshlab bergan o'zbek sovet dramaturgiyasiga xuddi shu yillardan boshlab revolyutsion kuylarni kuylash, Oktabrni va sovetlarni himoya qilish, eskilikka qarshi, yangi ozod hayot uchun kurash, hayot bilan qattiq bog'lanish, sotsial muammolarni ko'rsatish kabi sotsialistik g'oyalar kirib kelgan edi.

Rus sovet dramaturgiyasida V.Mayakovskiyning sovetlarning birinchi yilidayoq yozilib va 1918 yilda sahnaga qo'yilgan “Мистерия буфф” revolyutsion satirik pyessasi bilan bir vaqtda. Hamza 1918 yilda “Boy ila xizmatchi”, “Farg'ona fojialari”, “Tuhmatchilar jazosi” kabi agitatsion – revolyutsion va satirik asarlarni yaratib, grajdan urushi frontlarida – kurash o'ti ichida o'zbek sovet sahnasiga asos soldi.

Agar Gorkiy va Mayakovskiyilar revolyutsiyaning birinchi kunlaridayoq revolyutsion asarlar yaratib, revolyutsion kuylarni kuylagan va shu bilan sovet

¹ М.Горкий. “Вчера и сегодня”, Коммунистический интернационал,1919г.№1

² М.Горкий. Собр.соч.т.24,стр.186 - 189



badiiy adabiyotining yaratilishiga asos solgan bo‘lsalar, O‘zbekistonda Hamza ham xuddi shunday qildi. Bu esa Hamzani yirik sovet madaniyat arbobi sifatida Ittifoq miqyosiga olib chiqish huquqini beradi.

Hamza juda og‘ir sharoitlarda ishladi. Teatr tuzish, kadrlar topish, pyessalar yozish va uni tayyorlab sahnaga qo‘yish, muzikalar, sherlar yozish kabi ishlar qisqa vaqt ichida qanday tashkil qilingani kishini hayratda qoldiradi. Ammo Hamza shunday qobiliyatga ega edi.

Hamza bunchalik kuch va g‘yratni qayerdan olgan? Oktabrdan oldinroq xalqni ozod qilish fikriga tushgan Hamzaning talanti mustamlakachilik va feodal tatriblari iskanjasida bo‘g‘ilib yotgan edi. Shuning uchun u Oktabrni shodlik va zavq bilan:

Chor hukumat vaqtidagi
Qullig‘ingni o‘ylasang,
Shodligining mangu tuganmas,
Qancha o‘ynab, kuylasang.
deb kutib olgan edi.

Oktabr revolyutsiyasi mustamlakachilik tuzumini yemirib, feodalizm kishanlarini parchalab tashlagach, u zanjirdan ozod bo‘lgan sherdek otilib maydonga chiqdi. Ulug‘ Oktabr, g‘olib ishchilar, hilpiragan qizil bayroq uning yuragini tog‘day ko‘tardi, unda zo‘r optimistik ruh paydo bo‘ldi. U revolyutsiya minbarlarida baland ovoz bilan:

Haqingni ol, ishchilar,
Yashov davring sening.
Basdur shuncha xo‘rlik,
Zorliklar ko‘rganing!

Qurollan, mehnatchilar,
Bo‘lsin dunyo sening!
Bas endi qullik ko‘rib,
Asrlar kelganing!

deb, butun kuch va faoliyatini revolyutsiya yo‘liga, yangi hayot va yangi madaniyat qurishga bag‘ishladi, o‘tkir qalami bilan eski dunyoga qaqshatqich zarba bera boshladi.

Hamzaning dramaturgiyasiga o‘tishdan oldin uning poeziyalariga qishqacha to‘xtalib o‘tsak, Hamzani tekshiruvchilar bu haqda ko‘p narsalar yozganlar. Lekin Hamzaning revolyutsion poeziyalariga faqatgina poeziya deb qarab bo‘lmaydi.



U har bir yurak soʻzini xalqqa yetkazish, xalqni ozodlik va revolyutsion kurashga koʻtarish, dushmanlarni fosh qilish ruhida yozar edi. Shuning uchun ham bir sheriga revolyutsion ruhdagi muzika, kuylar toʻqib, xorlar yaratib xalq oldida ijro qildirar, butun respublikaga tarqatar edi. Revolyutsion poeziyaning jangovar muzika sadolari millionlab mehnakashlarning qulogʻiga yetib borar edi. Revolyutsion idealar targʻib qilishda bu ishning qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunib olish qiyin emas.

Hamzaning “ Shundoq qolurmi? ”, “ Hoy ishchilar ”, “ Biz ishchimiz ”, “ Yasha, Shoʻro ”, “ Hoy-hoy otamiz! ”, “ Uygʻon ”, “ Ishchilar uygʻon ”, “ Qizil askarlarga ”, “ Berma erkingni qoʻldan ” va shu kabi juda koʻp qahramonlik va revolyutsion sherlari inseniroyka yoki xor ijrosi uchun yozilgan edi. “ Sogʻinib ”, “ Salom ayting ”, “ Ishchi bobo ”, “ Oʻzbek xotin qizlariga ”, “ Yashangiz, ishchi-dehqonlar ”, “ Muborak ” kabi sherlari yakkaxon ashulachilar uchun yozilgan revolyutsion kuylar edi. U baʼzi ashula va sheʼrlardan bir pardali inseniroyka tuzib, sahnada obrazlar orqali ijro etdirar edi.

Hamzaning dramaturgiyasi uning revolyutsion poeziya va kuylarida koʻtarilgan gʻoya va temalar bilan uzviy bogʻlangan holda bordi.

Yashangiz, ishchi – dehqonlar, jahon ichra,
Boʻlmasin zolimlar bizning zamon ichra,
Buzamiz eski turmushni, xurofotni, bidʻatni,
Tuzamiz yangi turmushni yangi jahon ichra,
Abdiy soʻngra yashaymiz zamon ichra.

Mana shu hammaning ogʻzida aytilib yurgan kuyning temasi, gʻoyasi va buyuk maʼnosi Hamzaning barcha yozgan sahna asarlarida qizil ip kabi oʻtadi.

Yurak xazinasidan otilib chiqqan bu soʻzlar Hamzaning otashin revolyutsioner, isyonkor, yangi sovet madaniyatining olijanob va buyuk siymosi ekanligini koʻrsatadi.

Hamzaning revolyutsiya yoʻllaridagi dramaturgiyasida ikki sotsial kuchning – sotsializmni himoya qiluvchi kuchlar va sotsializmga qarshi kurashuvchi reaksiya kuchlar oʻrtasidagi ziddiyatlar koʻrsatilar va xalqning yengilmas kuchlari, ularning ozodlik yoʻlidagi yuksak maʼnaviy qarashlari koʻklarga koʻtarilar edi. Hamza dramaturgiyasi bilan sahna adabiyotiga birinchi marta yangi qahramonlar kirib



keldi. Uning qahramonlari xalqdan chiqqan oddiy kishilar edi. Masalan, G'ofur, Jamila, revolyutsioner Sultonov, Saidxon, Tal'at kabilar.

Hamza asarlarida drama, tragediya va satira janrlarining bir – biriga uzviy bog'lanishi uning ijodining xarakterli tomoni edi.

Hamza yaratgan pyessalarda xalq asosiy o'rinni egallar edi. Uning ijobiy qahramonlari xalq bilan bog'langan holda yaratilar edi. Hamzaning dastlabki dramaturgiyasining yana bir ajoyib xususiyati – unda internationalizm g'oyalari barq urib turishidir.

Hamzaning intervensiya va grajdan urushi yillaridagi yaratgan ko'p asarlari targ'ibot maqsadlarini ko'zda tutganidan ba'zilar badiiy kamolga yetmagan, ularda realistik obrazlar bilan bir qatorda naturalistik ko'rinishlar ham uchrar edi, biroq shunday bo'lsa ham, o'zining yuksak g'oyaviyligi bilan bu asarlar O'zbekistonda Sovetlarni mustahkamlash va o'zbek sovet adabiyotini sotsialistik realizm yo'liga solishda g'oyat katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldilar.

Hamzaning tinch qurilish yillarida – 1924 – 1927 yillarida yaratgan “ Maysaraning ishi ”, “ Burungi saylovlar ”, “ Parangi sirlaridan bir lavha ” yoki “ Yallachilar ishi ”, “ Xolisxon ”, “ Jahon sarmoyasining ohirgi kunlari ” kabi asarlarida grajdanlar urushu yillarida yaratilgan dramaturgiyadagi, badiiy nuqsonlar yo'qola bordi. Hamza bu yillarda boy tajribasiga suyanib, realistik asarlar va ijobiy obrazlar yaratish, sotsial konfliktlarni kuchaytirish yo'li bilan o'z asarlarini badiiy yuksakllika ko'targan edi.

Hamza ijodining mazkur 2-davrida nasr va dramaturgiya sohasida ham jiddiy izlanishlar olib borgan. Uning “ Yangi saodat ” (1914, nashri — 1915) asari ayrim olimlar tomonidan o'zbek adabiyotidagi roman janrining ilk namunasi sifatida talqin qilinib kelingan. Lekin bu asar aslida ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan qissa bo'lib, unda kambag'al yigit (Olimjon)ning ilm tufayli oilaviy baxt-saodatga erishganligi mahorat bilan tasvir etilgan.

Hamza 1914-1916-yillarda “ O'ch ” (1914), “ Zaharli hayot yohud Ishq qurbonlari ”(1915), “ Ilm hidoyati ” “ Mulla Normuhammad domlaning kufr hatosi ”, “ Ochlik qurbonlari ” (1916), “ Muxtoriyat yoki avtonomiya ” (1917) singari kichik sahna asarlarini yozgan.

Sinfilylik va partiyaviylik adabiy asarning qimmatini belgilovchi asosiy mezon hisoblangan davrlarda Hamzaning “Boy ila xizmatchi” pyesasi butunlay qayta yozib chiqilgan. Sotsialistik realizm metodi talablari asosida “qayta tiklangan” bu asar



uzoq yillar davomida Hamza dramaturgiyasining yuksak namunasi sifatida taqdim etilib kelingan.³

Hamza haqida doston (Oybek asari, 1948), roman ([K.Yashin](#) asari, 1989), teatr spektakli (K.Yashin va A. Umariy asari, 1941), kinofilm (ssenariy mualliflari K.Yashin va S.Muhamedov, rejissor Z.Sobitov, 1960), 16 seriyali badiiy film (ssenariy mualliflari K.Yashin, B.Privalov va [Sh.Abbosov](#), rejissor Sh.Abbosov, 1975-1984) va hujjatli film (ssenariy muallifi L.Qayumov, rejissor N.Otaullayeva, 1960) lar yaratilgan. Toshkent va Qo‘qon shaharlari hamda Farg‘ona vodiysidagi teatr, maktab, ko‘cha va shirkat xo‘jaliklariga, Toshkent shahridagi metro stansiyasiga shoir nomi berilgan. Hamza ijodi bilan [O‘zbekiston milliy universiteti](#) professori L. Qayumov ko‘p yillardan beri shug‘ullanib keladi. Bundan tashqari, M. Rahmonov, Yu. Sultonov kabi olimlar ham tadqiqotlar yaratganlar. [Toshkent](#) shahrining markaziy tumanlaridan biriga Hamza nomi berilgan.

1928-yildan unga nisbatan ta‘qib va tazyiq ko‘rsatila boshlaydi. Moddiy va ma‘naviy qiyinchilik, iztiroblarni boshdan kechiradi. 1929-yil 18-martda Hamza toshbo‘ron qilinib o‘ldiriladi.

Foydalanilgan adaviyotlar ro‘yhati:

1. M. Raxmonov. ХАМЗА ХАКИМ – ЗАДЕ НИЯЗИ И УЗБЕКСКИЙ СОВЕТСКИЙ ТЕАТР
2. O‘zbekiston milliy ensikolpediyasi
3. www.wikipedia.org

³ WWW.wikipedia.org